



## 2019-yilning yanvar-fevral oylarida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **518,0 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi - **90,4 % ni** tashkil etdi;
- Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **36,5 % ni** tashkil etdi;
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **42,7 % ni** tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 518,0 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 90,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 3,6 % ga o'sishi hisoblanadi. Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat (92,3 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (88,1 %) va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (60,7 %) pasaydi.

### *2019-yilning yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi*



- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish sur'ati - 60,7 foiz)
- Ishlab chiqaradigan sanoat (o'sish sur'ati - 92,3 foiz)
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati - 103,6 foiz)
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (o'sish sur'ati - 88,1 foiz)

## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-fevaral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 25,0 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,8 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tuzi (osh tuzidan tashqari) 3,7 martaga oshdi. Shu bilan birga, ko'mir qazib olish 19,4 % ga, neft 0,8 % ga pasaygan.



### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-fevalida ishlab chiqarilgan	Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishslash mahsulotlari	2019-yil yanvar-fevalida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	--	---	-------------------

#### Ko'mir, ming t.

34,5



27,7

80,6



#### Neft, ming t.

13,0



12,9

99,2



<b>2018-yil yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan</b>	<b>Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
---	--	---	--------------------------

**Osh tuzi, ming t.**

0,7



2,3

3,3m


**Qum, ming t.**

0,0



4,4

-



**Chaqiq tosh, ming t.**

0,0




11,5


-


**Neft qazib olish, ming.t**


### Ko'mir qazib olish, ming.t



### Chaqiq tosh qazib olish, ming.t




#### **Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2019-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 447,1 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,3 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,2 % ni (2018-yil yanvar-fevral oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,3 % (0,2 %), o'rta-quyi texnologiyali - 23,8 % (17,2 %) va quyi texnologiyali - 62,0 % (67,1 %) tashkil etdi.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha  
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarini ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,9 % (2018-yilning yanvar-fevral oyida 1,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,2 % (0,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 32,1 % (26,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 0,3 % (0,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 37,0 % (47,9 %)ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda aroq - 1,7m., ish kiyimlari - 1,0 %, non - 26,4%, un - 17,8 %, neft - 44,0 % ga oshdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

<b>2018-yil yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan</b>	<b>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
<b>Paxta tolasi, ming t.</b>			
20,4		6,8	33,6
<b>O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.</b>			
2,9		1,7	58,3
<b>Un, ming tn</b>			
15,6		18,4	117,8
<b>Aroq, ming l.</b>			
150,3		262,1	1,7m
<b>Dizel yoqilg'isi, ming t.</b>			
2,1		1,7	83,5




### ***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 35,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,8 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan – 36,3 % ga va elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmining – 0,6 % ga oshganligi kuzatildi.

### ***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***



### **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ni) tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari – 3,5 martaga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar – 0,3 % ga oshganligi kuzatildi, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar (57,1 %) kamaydi.

### **Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	---	--	-------------------

#### **Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, tonna**

2067



1778

86,0



#### **Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm**

945,9



539,7


57,1



### **Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.**

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 189,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 6,8 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 36,5 % ni tashkil etdi.

### **2019-yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati**



2018-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 53,5 % dan 2019-yilning yanvar-fevral oylarida 57,2 % ga oshishi kuzatilmoqda.

### **Chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 103,5 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 19,9 % ni tashkil etdi.

***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining  
sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.***

**2019-yil yanvar-fevral**



**2018-yil yanvar-fevral**




█ Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar  
█ Viloyatning boshqa korxonalari

***Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.***


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 17,2 %), Jarqo'rg'on (21,4 %), Denov (17,3 %) va Sho'rchi (11,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

***2019-yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish  
ulushi 2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan %***



Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Denov (iste'mol tovarlari hajmida 25,1 %), Sho'rchi (14,7 %) tumanlari va Termiz shahri (15,6 %) da ishlab chiqarildi.

### **2019-yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha istemol mollarining o'sishi 2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan %**




### **Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 221,3 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 42,7 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Boysun (99,9 %), Termiz (99,3 %), Uzun (91,9 %), Sherobod (60,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Sho'rchi (21,6 %), Jarqo'rg'on (24,1 %), Angor (35,1 %), Qumqo'rg'on (39,9 %) tumanlari va Termiz shahrida (38,8 %) kuzatildi.


### ***2019-yilning yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %***



### **Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

Bugungi kunda viloyatda 2168 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 480 tasi (mavjud korxonalar umumiyligi sonining 22,1 %) Termiz shahriga, 238 tasi (11,0 %) Denov tumaniga to'g'ri kelmoqda.

## Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil 1 mart holatiga)



2019-yil yanvar-fevral oylarida viloyatda 257 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 14,8 foizi Termiz shahri, 17,1 foizi Denov tumaniga to'g'ri keladi.

**Sanoat statistikasi bo'limi**  
Aloqa telefoni: (76) 223-07-24